

COLLECTION

Innovation, integration and modern
problems in the scientific activities of young
researchers and students: theory and
practice

www.d-pressa.com

31
MARCH



Jizzakh, Uzbekistan

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN
NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

SCIENTIFIC JOURNAL OF SCIENCE TECHNOLOGY & DIGITAL FINANCE
JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENCE NETWORKS

Innovation, integration and modern problems in the scientific activities of young
researchers and students: theory and practice collection of materials of the
international scientific and practical conference on the topic

(March 31, 2026)

Jizzakh-2026

Innovation, integration and modern problems in the scientific activities of young researchers and students: theory and practice – Jizzakh: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, March 31, 2026, 990 pp.

Editors in charge: Ass.prof. Soy M.P.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

DIQQATNING ASOSIY XUSUSIYATLARI: BARQARORLIK, KO'LAM, TAQSIMLANISH VA KO'CHUVCHANLIK

Ubaydullayeva O'g'ilshod Bahodir qizi

TerDPI 70310301- Psixologiya mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada diqqatning asosiy xususiyatlari – barqarorlik, ko'lam, taqsimlanish va ko'chuvchanlik tushunchalari nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Ushbu xususiyatlarning o'zaro bog'liqligi va bilish jarayonlaridagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, diqqat sifatlarining ta'lim jarayonidagi ahamiyati ilmiy manbalar asosida asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Diqqat, barqarorlik, taqsimlanish, ko'chuvchanlik, hissiyot va diqqat, iroda va diqqat, diqqatning taraqqiysi.

Diqqat insonning bilish jarayonlarini boshqaruvchi muhim psixik mexanizm hisoblanadi. U idrok, xotira va tafakkur samaradorligini ta'minlaydi. Diqqatning sifat ko'rsatkichlari uning asosiy xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi. Diqqat tushunchasiga olimlar tamonidan bir qator ta'riflar keltirilganligini ta'kidlash mumkin. P.I.Ivanov tamonidan diqqat deb –ongni bir nuqtaga to'plab muayyan bir ob'ektga aktiv qaratilishiga aytiladi. Psixologiyada diqqatning barqarorligi, ko'lami, taqsimlanishi va ko'chuvchanligi eng muhim ko'rsatkichlar sifatida e'tirof etiladi. Diqqat bir qancha xususiyatlarga ega bo'lib, ulardan asosiylari — diqqatning ko'chuvchanligi, bolinishi, kolami, kuchi va barqarorligidir. Bu xususiyatlarning qanchalik yaqqol ifodalanishiga qarab, har turli faoliyat jarayonida ayrim odamlar diqqatining ma'lum bir (ijobiy yoki salbiy) sifatleri belgilanadi. Barqarorlik — diqqatning muayyan obyekt yoki faoliyatga ma'lum vaqt davomida uzluksiz qaratilib turish qobiliyatidir. Barqaror diqqat o'quv jarayonida materialni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi.

Barqarorlik darajasi shaxsning qiziqishi, motivatsiyasi va hissiy holatiga bog'liq. Agar faoliyat mazmunli va qiziqarli bo'lsa, diqqat uzoqroq saqlanadi. Aksincha, zerikarli yoki murakkab topshiriqlarda diqqat tez susayadi. Diqqatning kuchi va barqarorligi uning muhim xossasidir. Diqqatning kuchi turli darajada bo'lishi — diqqat kuchli va kuchsiz bo'lishi mumkin. Diqqat qanchalik kuchli bo'lsa, u diqqat obyektiga shunchalik ko'p to'planadi, boshqa, ayni vaqtda keraksiz bo'lgan narsalarga shunchalik kam chalg'iydi. Eng kuchsiz diqqat, odatda, tarqoq diqqat, parishon diqqat yoki to'g'ridan to'g'ri parishonlik deyiladi. Parishonlik odamning o'z diqqatini biron-bir muayyan ishda tutib tura olmasligidir. Parishonlikda odamning diqqati bir narsadan boshqa bir narsaga beixtiyor ravishda o'tib turadi, bu narsalardan birontasida ham to'xtab turmaydi.

Diqqatning ko'lami — diqqatga eng qisqa vaqt ichida (go'yoki birdaniga) sig'ishi mumkin bo'lgan narsalar soni bilan belgilanadi. Diqqat ko'lami jihatidan tor yoki keng bo'lishi mumkin. Ko'lam (hajm) — diqqat bir vaqtning o'zida qamrab

olishi mumkin bo'lgan obyektlar sonidir. Tadqiqotlarga ko'ra, inson diqqatining o'rtacha ko'lami 5–7 birlikni tashkil etadi.

Ko'lamning kengligi axborotni tez va to'g'ri qabul qilishga yordam beradi. Ta'lim jarayonida ko'rgazmali vositalardan foydalanish diqqat ko'lamini kengaytirishga xizmat qiladi. Tajriba qilib tekshirishda diqqatning ko'lami, odatda, tekshirilayotgan odamga ayni bir vaqtning o'zida bir qancha o'zaro bog'lanmagan harflarni, so'zlarni, narsalarni va turli shakllarni ko'rsatish yo'li bilan aniqlanadi. Diqqat ko'lamining fiziologik asosi miya po'stida optimal qo'zg'algan joyning kengayishi yoki torayishidan iborat. Bunda miya po'stidagi optimal qo'zg'algan joy ayni vaqtda ta'sir qilib turuvchi boshqa qo'zg'atuvchilar bilan hosil qilingan qo'zg'alish jarayonlarining qo'shilishi tufayli kengayadi, ichki tormozlanish jarayonlarining kuchayishi natijasida esa bu joy torayadi.

Taqsimlanish — bir vaqtning o'zida bir nechta faoliyatni nazorat qilish qobiliyatidir. Masalan, o'quvchi yozish jarayonida o'qituvchini tinglashi mumkin. Bu xususiyat murakkab faoliyat turlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Taqsimlanish ko'nikma va mashq orqali rivojlanadi. Diqqatni taqsimlash o'qituvchi uchun ham juda muhim: u sinfdagi barcha o'quvchilarni o'z diqqati doirasida ushlab turishi kerak. Diqqatni taqsimlash qobiliyati faoliyatni o'zlashtirish jarayonida shakllanadi, uni mashqlar va tegishli ko'nikmalarni to'plash orqali rivojlantirish mumkin. Diqqatning ko'chuvchanligi va taqsimlanishini o'rganish insonning psixik faoliyati samaradorligini oshirish hamda shaxsning kognitiv imkoniyatlarini rivojlantirish uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Diqqatning kuchi va barqarorligi hissiyotga bog'liq. Bu yerda hissiyotning roli ikki xil — ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. Hissiyot diqqat qaratilgan narsa bilan bog'liq bolgan taqdirdagina diqqat uchun ijobiy ahamiyatga ega bo'ladi: bunday hissiyot qanchalik kuchli bo'lsa, diqqat ham shunchalik kuchli va barqaror bo'ladi. Ixtiyoriy (irodaviy) diqqatning kuchi iroda kuchi bilan saqlab turiladi. Ko'pincha, ixtiyorsiz diqqatning barqarorligi ham faoliyat jarayonida irodaning zo'ri bilan ushlab turiladi. Shuning uchun iroda, asosan, diqqatda ko'rinadi, desa bo'ladi. Agar kishi diqqatli bo'lishni xohlab, buning uchun zo'r bersa, diqqat kuchli va barqaror bo'ladi; bunda kishi ixtiyorsiz ravishda paydo bo'ladigan va diqqatning obyektiga munosabati bilmagan taassurotlar, tasavvurlar, fikr va hissiyotlarni siqib chiqarish va yo'q qilib yuborish uchun zo'r harakat qiladi.

Diqqatning barqarorligi, ko'lami, taqsimlanishi va ko'chuvchanligi uning sifat jihatlarini belgilaydi. Ushbu xususiyatlar o'zaro bog'liq bo'lib, bilish jarayonlari samaradorligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Umumiy psixologiya: Pedagogika va psixologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik. / P.I. Ivanov, M.E. Zufarova; Mas'ul muharrir D.M. Mirzajonova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. 480 b.
2. F.I. Xaydarov N.I. Xalilova Toshkent –2010. Umumiy Psixologiya (darslik) .

3. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008.
4. Kamolov D. ETHICS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE: EXPLORING THE MORAL AND SOCIAL IMPLICATIONS OF AI IN CONTEMPORARY SOCIETY //SGS-Engineering & Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 02.
5. Kamolov D. R. O. G. L. O'zbekistonda demokratiya va axloqning zamonaviy muammolari va yechimlari //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. NUU Conference 2. – C. 348-352.
6. Kamolov D. GLOBALIZATION PHENOMENON AND GLOBALISM //Journal of Contemporary World Studies. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 4-9.
7. Kamolova S., Erkinboyeva X. JAMIYAT VA SHAXS ORASIDAGI MUNOSABATNING PSIXOLOGIK QONUNIYATLARI //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 251-255.
8. Mahmudova Z. S. MAQSADGA ERISHISH UCHUN GURUH YONDASHUVLARINI SOLISHTIRISH VA TAQQOSLASH //Inter education & global study. – 2024. – №. 9 (1). – C. 421-434.
9. Kamolova S. ISLOM SIVILIZATSIYASINING MARKAZIY OSIYODA RIVOJLANISHI: TARIXIY TARAQQIYOT BOSQICHLARI VA MADANIY-MA'NAVIY MEROS //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 563-565.

RAQAMLI TURIZM TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

To‘ychiyeva Nodira

O‘zMU Jizzax filiali o‘qituvchisi

Abdujalilov Diyorbek

O‘zMU Jizzax filiali 342-25 guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu tezis raqamli turizm texnologiyalarining mazmuni, ularning turizm sohasiga ta'siri hamda zamonaviy turizmni rivojlantirishdagi ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari turizm sohasining ajralmas qismiga aylangan. Onlayn bronlash tizimlari, virtual sayohatlar, mobil ilovalar va sun'iy intellekt asosidagi xizmatlar sayyohlar uchun qulaylik yaratmoqda. Tadqiqotda raqamli turizmning iqtisodiy, ijtimoiy va innovatsion jihatlari tahlil qilindi hamda O‘zbekistonda uni rivojlantirish istiqbollari ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: raqamli turizm, onlayn bronlash, virtual tur, mobil ilova, sun'iy intellekt, smart turizm, turizm marketingi, innovatsiya.